

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
DSc.03/2025.27.12.T.15.03 RAQAMLI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

TOXIROV NURBEK XOLMIRZAYEVICH

**TRIKOTAJ MATOLARI UCHUN IPLARNING DEFORMATSION
XOSSALARINI INOBATGA OLGAN HOLDA LOYIHALASHNING
NAZARIY VA AMALIY TADQIQI**

**05.06.02–To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va
xomashyoga dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Namangan-2026

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical science**

Toxirov Nurbek Xolmirzayevich

Трикотаж матолари uchun iplarning deformatsion xossalarini inobatga olgan
holda loyihalashning nazariy va amaliy tadqiqi..... 3

Тохи́ров Ну́рбек Хо́лми́рзаевич

Теоретическое и практическое исследование проектирования
трикотажных полотен с учетом деформационных свойств нитей 23

Toxirov Nurbek

Theoretical and practical study of the design of knitted fabrics taking into
account the deformation properties of threads..... 43

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 46

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
DSc.03/2025.27.12.T.15.03 RAQAMLI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

TOXIROV NURBEK XOLMIRZAYEVICH

**TRIKOTAJ MATOLARI UCHUN IPLARNING DEFORMATSION
XOSSALARINI INOBATGA OLGAN HOLDA LOYIHALASHNING
NAZARIY VA AMALIY TADQIQI**

**05.06.02–To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va
xomashyoga dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Namangan-2026

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2023.3.PhD/T3969 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Namangan davlat texnika universiteti huzuridagi Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.namdtu.uz) hamda «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Erkinov Zokirjon Erkinboy o'g'li
texnika fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Yuldashev Jamshid Qambaraliyevich
texnika fanlari doktori, dotsent

Maxkamova Shoira Faxriddinovna
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat texnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat texnika universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.T.15.03 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil 18 iyul soat 15:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160115, Namangan shahri, Gulobod MFY, Janubiy aylanma yo'li ko'chasi, 17-uy, Tel: (+99895)200-43-04, 400-43-04, e-mail: info@namdtu.uz, Namangan davlat texnika universiteti 15-binosi, 1-qavat, majlislar zali).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№191-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 160103, Namangan sh., Yangi Namangan tumani, Islom Karimov ko'chasi 12-uy. Tel: (99869) 234-14-85

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil 06 iyul kuni tarqatildi.
(2026 yil 04 maydagi № 94 raqamli reyestr bayonnomasi).



J.S.Ergashev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, texnika fanlari doktori, professor

X.T.Bobojanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, texnika fanlari doktori, dotsent

J.K.Yuldashev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda kelgusi bir necha yil ichida to'qimachilik bozori hajmi sezilarli darajada oshishi kutilmoqda. Hisobotlarga ko'ra, jahon to'qimachilik bozori hajmi 2024-yilda 640,43 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo'lib, 2025-yilda yillik o'sish sur'ati 8,7% ga yetib, 696,16 milliard dollarga yetgan, bu ko'rsatkich 2029-yilga borib esa 915,96 milliard dollarga ko'tarilishi kutilmoqda¹. Prognoz davridagi o'sish aholi sonining ko'payishi, urbanizatsiya, elektron tijoratning jadal rivojlanishi, bo'sh vaqt xarajatlarining oshishi, chakana savdo, internet va smartfonlarning kirib borishi va kontaktsiz yetkazib berish yechimlariga bo'lgan afzallikning oshishi va to'qimachilik mahsulotlariga bo'lgan talab ortishi bilan izohlanmoqda. Bu borada jumladan, trikotaj matolari uchun iplarning deformatsion xossalarini inobatga olgan holda loyihalash, halqali yigirish mashinalarida ip shakllanish jarayonlarini takomillashtirish hamda ballon hosil bo'lishi va taranglikni boshqarish masalalariga e'tibor qaratilmoqda. Bundan tashqari, halqali yigirish mashinalarida ipda ballon shaklini kichraytirish va bu orqali ip tarangligidagi notekislikni kamaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda trikotaj buyumlar assortimentini kengaytirish va sifatini oshirish, yangi konstruksiyalarni yaratish, shakl saqlash xususiyati yaxshilangan trikotaj buyumlarini to'qishning samarali usullarini ishlab chiqish muammolarini nazariy hamda amaliy jihatdan o'rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan, turli trikotaj buyumlar ishlab chiqarishda fizik-mexanik xususiyatlarini yaxshilash va assortimentini kengaytirish uchun yangi tuzilmalar va usullar ishlab chiqish, turli tolali iplardan trikotaj buyumlarini olish texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, ip ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish va takomillashtirish, ip sifatini oshirish maqsadida halqali ip yigirish mashinalari uchun yangi o'rash tizimi konseptsiyasi ishlab chiqish, halqada yugurdak ishqalanishini kamaytirish, ipda buramlarni to'g'ri taqsimlanishini o'rganish, ip dinamikasini matematik modellashtirish asosida trikotaj buyumlari uchun iplarning deformatsion xossalarini baholash dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda trikotaj matolari uchun deformatsion xossalari yuqori bo'lgan iplarni ishlab chiqarish, halqali yigirish mashinalarining ishchi qismlarini takomillashtirish hamda mahalliy paxta xomashyosini chuqur qayta ishlash asosida raqobatbardosh tayyor mahsulot ishlab chiqarish vazifasi sohaning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqsadlarni ro'yobga chiqarish bo'yicha yillik va istiqbolga mo'ljallangan ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "O'zbekiston — 2030" strategiyasi² da "Mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ilg'or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish" hamda "Sanoatning "drayver" sohalarini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to'liq ishga solish" bo'yicha muhim vazifalar belgilangan. Ushbu

¹ <https://www.thebusinessresearchcompany.com/report/textile-global-market-report>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi" to'g'risida PF-21-son Farmoni

vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, ballon shaklini kichraytirish va ip tarangligini rostdash asosida yuqori sifatli, trikotaj buyumlari uchun mos bo'lgan kam buramli va deformatsion ko'rsatkichlari yaxshilangan trikotaj iplarini ishlab chiqarishga, shuningdek, korxonalarda ishlab chiqarilayotgan trikotaj iplari assortimentlari, qo'llanilayotgan yigirish mashinalarining texnik, konstruktiv va assortiment imkoniyatlarini keng tadqiqotlar o'tkazish orqali o'rganish, hamda muayyan maqsadlar uchun turli tarkib va chiziqli zichlikdagi, tuzilishi turlicha bo'lgan trikotaj iplarni ishlab chiqarish texnologiyasini tanlash va ipning belgilangan xossalari boshqarishga qaratilgan ushbu ilmiy izlanishlar muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi "O'zbekiston - 2030" strategiyasi" to'g'risida PF-21-son, 2025-yil 16-yanvardagi "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6-son Farmonlari, 2024-yil 1-maydagi "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-71-son, 2023-yil 10-yanvardagi "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish, hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-2 farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-maydagi "Respublikada to'qimachilik, charm-poyabzal va elektrotexnika mahsulotlari eksportini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi VMQ-274 son qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. "Energetika, energiya va resurs-tejamkorlik" ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Muayyan assortimentdagi iplar ishlab chiqarish, ulardan keng va samarali foydalanish, mato to'qish jarayonlari samaradorligini oshirish asosda mahsulot sifatini yaxshilash va tannarxini pasaytirish, yigirish mashinalari ishchi qismlarini takomillashtirish va maqbullash orqali uning ish unumini oshirish, yangi turdagi iplar assortimentini yaratish, ip strukturasidagi o'zgarishlarni oldindan aniqlash, iplarning deformatsion xossalari asosida yigirish mashinalarining optimal parametrlarini tanlash bo'yicha bir qator xorijlik olimlar katta hissa qo'shganlar, jumladan, Lawrence, Carl A., Barxotkin Y.K., Zotikov V. YE., Borzunov I.G., Badalov K.I., Chistoborodov G.I., Cailian Q., Longdi C., Arindam Basu, Zhao, H. B., Kang T. J., Md. Din Islam, Frolov V.D., Przybyé, K., Stolyarov A.A., Migushov I.I., Kagan V. M. va boshqalar.

To'qimachilik iplari ishlab chiqarish texnika hamda texnologiyalarini takomillashtirish, trikotaj iplarining xossa ko'rsatkichlarini tadqiq etish va ularning deformatsion xossalari yaxshilashga O'zbekistonning taniqli olimlarining ilmiy ishlari bag'ishlangan. Bulardan: R.Z.Burnashev, M.M.Muqimov, K.Jumaniyazov, B.Mardonov, K.S.Sultonov, M.Qulmetov, J.Q.G'ofurov, X.T.Bobojanov, X.Parpiyev, U.Meliboyev, Q.Xoliqov, S.L.Matismailov, N.Odilxonova, Z.Erkinov, A.Soliyev, Sh.Qoraboyev va boshqalar. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida,

tola va iplardan samarali foydalanish, yigirish jarayonlarini optimallashtirish, ipning fizik-mexanik va deformatsion ko'rsatkichlarini oshirish hamda halqali yigirish mashinalari ishchi qismlarining optimal parametrlarini aniqlash bo'yicha salmoqli natijalarga erishilgan.

Shu bilan birga, bugungi kunda muayyan assortimentdagi trikotaj iplari ishlab chiqarish, ularning fizik-mexanik xususiyatlari va yigirish mashinalari ishchi qismlarini ip xossalariga ta'siri, trikotaj iplarining turli xossa va xususiyatlari hamda ularning yigirish mashinalari samaradorligiga ta'siri kabi masalalarni yetarli darajada o'rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Davlat ilmiy-texnika dasturlarining asosiy yo'nalishlari ro'yxatiga kiritilgan va Namangan davlat texnika universiteti hamda Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi trikotaj matolari uchun iplarning deformatsion xossalarini inobatga olgan holda loyihalashning nazariy va amaliy tadqiqi asosida sifatli trikotaj iplari ishlab chiqish va buning uchun halqali yigirish mashinasi qismlarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

trikotaj sanoati va uning holatini tahlili va trikotaj matolari va iplarining deformatsion ko'rsatkichlarini o'rganish;

trikotaj iplari ishlab chiqarish uchun halqali yigirish mashinasi ishini tahlil etish;

halqali yigirish mashinasi unumdorligi va ip shakllanishida ballonning ahamiyatini tadqiq etish;

halqali yigirish mashinasida ip tarangligini nazariy jihatdan o'rganish;

yigirish korxonalarida trikotaj iplari ishlab chiqarish bo'yicha tadqiqotlar olib borish orqali mashina ishchi qismlarini takomillashtirish;

ip deformatsiyasining uning xossa ko'rsatkichlari va tuzilishiga ta'sirini o'rganish bo'yicha tajribalar o'tkazish;

takomillashtirilgan qurilmani qo'llab, halqali yigirish mashinasining texnik iqtisodiy ko'rsatkichlarini oshirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida halqali yigirish mashinasi, yigirilgan ip namunalari, ballon, halqali plankani harakatga keltiruvchi kulachok hamda mashina unumdorligi olingan.

Tadqiqotning predmetini halqali yigirish mashinasi ishchi qismlarini takomillashtirish, ballonning o'lchamini o'zgartirish, deformatsion xossasi yaxshilangan trikotaj iplarini ishlab chiqarish, ip tayyorlashning texnologiyalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida iplar mexanikasi, ip ishlab chiqarish va sifatini baholashda maxsus va zamonaviy usullar, tajriba analizi, baholash va maqsadli elektron dasturlar vositasida optimallashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

halqali ip yigirish jarayonida hosil bo'ladigan ballon balandligini $1/4$ qismigacha kichraytirish imkonini beruvchi, halqali planka harakatini nazorat qiluvchi takomillashtirilgan kulachok konstruksiyasi ishlab chiqilgan;

ip shakllanish jarayonida ballon balandligini kichraytirilishi hisobiga uning taranglik bo'yicha notekisligini va yugurdakning ishqalanish koeffitsiyentini kamaytirish imkonini beruvchi takomillashtirilgan texnologik usul ishlab chiqilgan;

halqali yigirish mashinasida ipning ballon shakli va bo'ylama tarangligini aniqlash uchun aylanuvchi koordinatalar sistemasida elliptik integrallar va elliptik sinuslar yordamida yechiladigan differensial tenglamalar tizimi ishlab chiqilgan;

yugurdakdagi ipning sirpanib harakatlanishi jarayonida ipni silindrsimon sirt bo'ylab harakatlanishining Amonton va Eyler qonunlariga asoslangan, elastik egilishdan kelib chiqadigan qo'shimcha taranglik o'zgarishini inobatga oluvchi fizik-matematik modeli ishlab chiqilgan;

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

ipning shakllanishida ballon balandligini kichrayishi hisobiga uning taranglik bo'yicha notekisligini kamaytirish erishilgan buning hisobiga yugurdakning ishqalanish koeffitsiyentini kamaytirilgan;

halqali yigirish mashinasida ip shakllanishida ballon shaklini kichraytirish hisobiga ip uzilishlar sonini kamaytirishga erishilgan;

ballonning shaklini o'zgarishi natijasida ip tarangligini rostlash hisobiga yugurdakning ishlash muddatini oshirishga va shuning natijasida mashina ish unumdorligini oshirishga erishilgan;

mashinada ip uzilishlar sonini kamaytirish, ballon formasini o'zgartirish hisobiga ipdagi taranglikni rostlash hisobiga ipga ta'sir ko'rsatadigan zo'riqish va taranglikni kamayishi hisobiga ip strukturasini o'zgartirishi aniqlangan;

mavjud modifikatsiyadagi halqali yigirish mashinalarida takomillashtirishni amalga oshirish hisobiga deformatsion xususiyatlari yuqori trikotaj iplari ishlab chiqarilganda yuqori unumdorlik ta'minlangan;

tavsiya etilayotgan takomillashtirishdan olingan trikotaj iplarining xossa ko'rsatkichlari va sifati yuqori ekani aniqlangan va korxonadagi boshqa mashinalarda ham qo'llash tavsiya etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi, eng avvalo, katta hajmdagi tajriba materiallarining statistikasi, nazariy va amaliy tadqiqotlarning natijalarini solishtirish, baholash mezonlariga ko'ra ularning mos kelishi, yangi tavsiya etilgan texnologiyada trikotaj iplari ishlab chiqarishning nazariy va amaliy tadqiqotlarining o'zaro mosligi bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ip shakllanishida hosil bo'ladigan ballonni kichraytirish natijasida tolalarga ta'sir ko'rsatadigan zo'riqish va taranglik kuchini rostlangan va buning natijasida yuqori sifatli, deformatsion ko'rsatkichlari yuqori trikotaj ip ishlab chiqarishni ilmiy asoslangan texnologiyasini yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati halqali yigirish usulida ipning shakllanish jarayoni bilan strukturasini va xossalari orasidagi bog'liqlik unga ta'sir etuvchi parametrlarni hisobga olib o'rganilganligi hamda mavjud modifikatsiyadagi halqali yigirish mashinalarida ballon hosil qilishning maqbul parametrlari o'rnatilib, urchuq

tezligi va buramlar sonini ip xossalariga ta'sirini o'rganish asosida optimal ishchi parametrlar tavsiya etilganligi natijasida mashina unumdorligi oshirilib, yuqori sifatli trikotaj iplari olish amalda asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Korxonada sifatli ip ishlab chiqarish uchun tarash mashinasi ratsional parametrlarini o'rnatish, halqali yigirish mashinasiga halqali plankaga harakat beruvchi kulachok konstruksiyasini takomillashtirish orqali ballon shaklini o'zgartirish natijasida ipning strukturaviy tuzilishini o'zgartirmagan holda, mashinadagi urchuqlar tezligini oshirish orqali mashina unumdorligini oshirish hamda xossa ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan trikotaj iplarini ishlab chiqarish bo'yicha qilingan izlanishlar natijalari asosida:

trikotaj iplarni olish texnologiyasi "Namangan paxta teks" MCHJ korxonasida ishlab chiqarishga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi «O'zto'qimachilik sanoati» Uyushmasining 2026 yil 2 iyundagi № 01/06-741 - sonli ma'lumotnomasi). Natijada texnologik parametrlarni saqlagan holda halqali plankaga harakat beruvchi kulachok konstruksiyasini takomillashtirish orqali ballon balandligini 1/4 qismga kamaytirilganda, ipning Uster bo'yicha notekisligi 9% ga kamaygan, ipning pishiqligi 4% ga va uzilishdagi uzayishi 10% ga oshgan, uzilishlar soni 17 tadan 4 taga tushgan, ya'ni 76% ga kamaygan; urchuqning aylanishlar soni 19800 min^{-1} dan 20400 min^{-1} ga oshirilishi hisobiga bitta mashinada unumdorlikni soatiga 427,3 kg dan 439,7 kg ga, ya'ni 12,4 kg ga oshirilishi hisobiga korxona uchun kutilayotgan yillik iqtisodiy samaradorlik 19 mlrd 777,64 mln so'm (o'n to'qqiz milliard yetti yuz yetmish yetti million olti yuz qirq ming so'm) ni tashkil qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, shundan 2 tasi respublika va 6 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 107 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari shuningdek, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Dissertatsiyaning "**Adabiyotlar tahlili, tadqiqot maqsadi va vazifalari**" deb nomlangan birinchi bobida yigirilgan iplar texnologiyasining asoslari diskret uzunlikdagi tolalardan iplar ishlab chiqarish va yigirilgan iplarning tuzilishi hamda

xossalariga bog'liqligi, trikotaj iplari ishlab chiqarish texnika, texnologiyasi va trikotaj iplar tuzilishi, halqali yigirish mashinalarini takomillashtirish, yigirish mashinasida ip yigirish jarayonida ballon hosil bo'lishi, ushbu hosil bo'lgan ballonni ip sifatiga ta'siriga qaratilgan va trikotaj iplarini ishlab chiqarishni o'ziga xosligiga oid adabiyotlar tahlili bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Deformatsion xossalari yuqori iplari ishlab chiqarish uchun halqali yigirish mashinasida amaliy va nazariy tadqiqotlar”** deb nomlangan ikkinchi bobida halqali yigirish mashinalarida ip shakllanishida taranglikni tadqiqi, halqali yigirish mashinasida ipda ballon tuzilishini boshqarish bo'yicha tadqiqotlar, halqali yigirish mashinasida halqali planka harakatini tadqiqi asosida ballonda taranglikni rostlash, halqali yigirish mashinalarida ballon hosil bo'lishi va ip tarangligining nazariy tadqiqi, yugurdakdan ipning sirpanib o'tishida ishqalanishi va taranglikning nazariy tadqiqi bo'yicha tadqiqotlarni o'z ichiga oladi.

Bugungi kunda mavjud yigirish tizimlarida ip olish jarayoni bir-biri bilan farqlanadi. Ulardan halqali yigirish usuli eng sifatli ip ishlab chiqaruvchi hisoblanishi hamda ushbu usulida olingan iplar hozirda ham o'zining afzalliklarini saqlab qolayotganligini ko'plab tadqiqotchilar tomonidan e'tirof etilgan. Halqali yigirish usulida olingan iplar boshqa usulda tayyorlangan iplarga nisbatan fizik-mexanik xossa ko'rsatkichlarining yuqoriligi bilan ajralib turadi. Tadqiqotlar davomida halqali yigirish mashinasi ishi tadqiq etiladi, ip shakllanishida taranglikni ip xossalariga ta'siri o'rganiladi va shu asosida mashina ishchi qismlari takomillashtiriladi. Deformatsion xossalari yuqori bo'lgan trikotaj iplari ishlab chiqarish bo'yicha nazariy va amaliy tadqiqotlar olib boriladi.


Ipning tarangligini ta'minlash ipning strukturaviy tuzilishiga, uning sifatini bir xilda bo'lishi va eng asosiy ko'rsatkichlardan biri ipning uzilishlar soniga katta ta'sir ko'rsatadi.

Respublikamizda aksariyat korxonalar klaster tizimiga o'tkazilgan bo'lib, amaliy tadqiqotlar shunday yetakchi korxonalardan biri “Fergana Global Textile” korxonasida o'rnatilgan halqali yigirish mashinalari olib borildi. Korxonaning yigirish ishlab chiqarishida Rieter kompaniyasining eng so'nggi modeldagi mashinalari o'rnatilib, texnologiyasi joriy etilgan.


Halqali yigirish mashinalaridan G37 va K47 rusumli mashinalar o'rnatilgan. Korxonada oddiy va qayta tarash yigirish tizimida oddiy va kompakt iplari ishlab chiqariladi. Korxonada K47 rusumli mashinalarda kompakt iplari, shuningdek, G37 mashinasida oddiy halqali yigirish mashinalarida iplar yigirish bilan birga, “Suessen” firmasining COMPACTeasy qurilmasi bilan jihozlab, kompakt iplari ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan. Korxonada oddiy yigirish tizimida G37 mashinasida oddiy va kompakt iplari yigirib olinish bilan birga, K47 rusumli yigirish mashinalarida qayta tarash tizimida kompakt iplari ishlab chiqarilmoqda.

Tadqiqotlar davomida K47 va G37 rusumli kompakt halqali yigirish mashinalarda ipning xossa ko'rsatkichlarini tadqiq qilish uchun saralanmadan Ne 30 trikotaj iplari yigirib olindi.

Halqali plankani harakatini muvofiqlashtirish va ballonni kichraytirish maqsadida, kulachokning tuzilishiga o'zgartirish kiritilgan (1-rasmga qarang).



a)



b)



c)



d)

1-rasm. Takomillashtirilgan halqali plankaga harakat uzatish tizimi: mavjud holat (a), takomillashtirilgan holat (b), kulachokning mavjud konstruksiyasi (c), kulachokning takomillashtirilgan konstruksiyasi (d)

Yuqoridagi takomillashtirish orqali ballonni kichraytirish imkoniga ega bo'lamiz. Nazariy tadqiqotlarimizda aniqlaganimizdek, ip shakllanishida ballonni kichraytirish orqali ip tarangligini o'ramning barcha qismida bir xil bo'lishini ta'minlash, yugurdakning xizmat muddatini oshirish, ip uzilishlar sonini kamaytirish hamda urchuqning aylanishlar sonini oshirishga erishamiz. Takomillashtirish ishlarini ishlab chiqarish sharoitida sinab ko'rildi. Yangi qismlarni o'rnatish uchun mavjudga solishtirganda vaqt sarfi kuzatilmadi.

Shunga qaramasdan takomillashtirilgan kulachokni dastlabki holatda rostlash va ishga tushirib olish uchun 1-2 soat vaqt talab etildi va shundan so'ng, halqali plank balandligini rostlash va ishlab chiqarishni boshlash ishlari bajarildi. Korxona mutaxassislari tomonidan K47 rusumli kompakt halqali yigirish mashinasida chiziqiy zichligi 20 teks (Ne 30 – CCM) bo'lgan sifatli trikotaj iplari ishlab chiqarish bo'yicha olib borilgan tadbirlar natijasida urchuqning tezligini 19800 ayl/min gacha ishlatilgan va undan yuqori tezlikda yugurdakning ishlash muddati 9 kundan oshmagan. Buning natijasida mashinaning ish unumdorligi 427 kg/soatni tashkil etgan. Olib borilgan takomillashtirishlardan so'ng, kuzatishlar natijasi ijobiy bo'ldi va urchuqning


aylanishlar soni 20400 ayl/min ga oshirishga erishilgan. Ballonning kichik bo'lishi va taranglikni bir xilda bo'lishi natijasida esa, yugurdakning xizmat muddati 9 kundan 12 kunga yetdi. Shu bilan birga mashinaning ish unumdorligi 439,7 kg/soatga oshgan.

To'qimachilik texnologiyasida nazariya va ilovalar uchun katta qiziqish har doim ipning kontur-aylanish harakati haqidagi savolga ega bo'lgan va hozir ham mavjud. Kontur yoki barqaror harakat-bu har doim o'zgarmas chiziqli shaklini saqlaydigan ipning harakati. Bunday holda, ip ma'lum bir nisbiy tezlik $v_r = v_r(t)$ bilan chiziqli bo'ylab harakatlanadi va chiziqli o'zi harakatsiz yoki o'zboshimchalik bilan harakat qiladi. Ushbu harakat halqali yigirish mashinasida ipni pishitish va naychaga o'rash paytida amalga oshiriladi.


Ipning ballonlanish muammosining to'g'ri yechimlari tadqiqotchilarning ishlarida berilgan. Shu bilan birga, ushbu adabiyotlarda keltirilgan taniqli va hatto yetakchi mexaniklarning tadqiqotlari yugurdak ipining halqa bo'ylab ishqalanish bilan harakatlanishi va bunda ishqalanib harakatlanayotgan massasining yuki m_B ni hisobga olmagan holda ipning harakatini yoki nisbiy muvozanatini o'rganish bilan cheklanganlar. Professor A.G.Sevostyanov tomonidan qurilgan ballonning matematik modeli yetarlicha to'liq shartlarni hisobga oladi, ammo qabul qilingan taxminlar, noaniqliklar va eskirgan modellashtirish usuli halqali yigirish mashinasida o'rash haqida aniq bilimlarni cheklaydi.

Professorlar Y.V. Yakubovskiy, V.S. Jivov, Y.I. Koritisskiy va I.I. Migushovlarning fikricha, ipning tinch turgan holatidagi chizig'i bo'ylab bir tekis harakatlanishi bilan, tashqi kuchlar mavjud bo'lganda, tinch turgan holatidagi chizig'i bir xil kuchlar va bir xil chegara sharoitlari va chiziqli o'lchamlarda ipning muvozanat chizig'iga to'g'ri keladi.

Ballonning matematik modeli bo'yicha hisob-kitoblar, umumiy shartlarni hisobga olgan holda, muammoni sezilarli darajada soddalashtirish mumkinligini ko'rsatadi. Odatda, birinchidan, ipning tortishish kuchi, ikkinchidan, havo qarshiligining kuchi e'tiborsiz qoldiriladi.



2-rasm. Halqali yigirish mashinasida ipning ballon hosil qilishi



3-rasm. Aylanish o'qida uchlari bilan mahkamlangan ipni aylantirish

Ipning chiziqliy zichligi 20 teks, urchuqning aylanish tezligi 20000 min^{-1} , buram soni 750 bur/m va kontur tezligi 24,7 m/min bo'lganda, μv^2 kattalik $4,2 \cdot 10^{-3} \text{ mN}$ ni tashkil etadi. Halqali yigirish mashinasida taranglik T_{b-p} ni quyidagi shartlarda hisoblaymiz (2-3-rasmlarga qarang): ipning chiziqliy zichligi 20 teks, ballon balandligi $h = 240 \text{ mm}$, yugurdak massasi $m_B = 0,075 \text{ g}$, halqa diametri $D_B = 2R_k = 45 \text{ mm}$, naycha diametri $d = 2r = 22 \text{ mm}$, urchuqning aylanish tezligi 20000 min^{-1} .

Ballon balandligi h va o'ram diametri r ning berilgan qiymatlari ip hosil bo'lishining ma'lum sharoitlarida yuguruvchi va g'altak orasidagi eng katta kuchlanish qiymatiga mos keladi. Agar $k_K = 0,17$, $k_H = 0,23$ ni qabul qilsak $C_1 = 526,6$, $C_2 = 0,036$, $\alpha_B = -0,062$ ga ega bo'lamiz. Yigirish mashinasida ipni o'rash paytidagi maksimal taranglik, ya'ni yuqoridagi sharoitlarda yugurdak va g'altak orasidagi taranglik 74,65 sN ni tashkil qiladi. Minimal taranglik eng katta o'ram radiusi $r = 20 \text{ mm}$ va ballonning minimal balandligi $h = 112 \text{ mm}$ da sodir bo'ladi. Bu holda, ballon shaklining parametrlari sezilarli darajada o'zgaradi: ipning yugurdakka kirish burchagi $\alpha_B = 0,145$ radian, ipning tarangligining Ox o'qiga proyeksiyasi $T \frac{dx}{ds} = C_1 = 324,3$ ga teng bo'ladi. Keyin yugurdak va o'ram orasidagi taranglikning minimal qiymati 44,0 sN ga teng. To'qimachilik iplari mexanikasi bo'yicha zamonaviy amaliy ishlarda ipning harakat tenglamalarining murakkabligi va tashqi kuchlarning umumiy ta'riflari tufayli ishqalanishning soddalashtirilgan modellari ko'pincha qo'llaniladi.

Amalga oshirilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, shu paytga qadar iplar mexanikasi tekis va egri sirtlar bo'ylab harakatlanayotganda ipning ko'ndalang deformatsiyasining ta'sirini hisobga olmaydi.

Dissertatsiyaning **“Halqali yigirish mashinasi ishchi qismlarini takomillashtirish asosida sifatli trikotaj iplari ishlab chiqarish bo'yicha amaliy tadqiqotlar”** deb nomlangan uchinchi bobida trikotaj iplari strukturaviy tuzilishi sifatidan bir tekis, tukliroq, pishiqroq bo'lishi bilan bir qatorda g'ovakroq bo'lishi, o'z navbatida buning uchun buramlar soni kamroq bo'lishi lozimligini inobatga olgan holda tajribaviy tadqiqotlar ishlab chiqarish sharoitida “Global Textile Solutions” va “Fergana Global Textile” korxonalarida olib borilgan.

Yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish va sifatini oshirish turli tajribalar, sinovlar olib borish bilan bog'liq. Chunki sifatni belgilovchi ko'rsatkichlarni sinab, tekshirib ko'rma turib ishonchlik to'g'risida xulosa chiqarish mumkin emas.

Saralanma belgilangan xossaga ega ip ishlab chiqarishni ta'minlovchi, turli markadagi paxta tolalari aralashmasidir. Saralanma tuzish uchun paxta tolasini tanlash yigirish korxonasi mutaxassislarining asosiy muhim vazifalaridan biridir.

Olib borilgan tahlillar natijasida saralanmani loyihalash uchun undan ishlab chiqariladigan to'qimachilik mahsulotlari hamda tolalar aralashmasining sifatni sonli baholashning bog'liqligini yangi analitik uslubini mavjudlarini uyg'unlashtirgan holda ishlab chiqish lozimligi aniqlandi.

Korxonada ishlab chiqarish jarayoniga xorijiy mutaxassislar jalb etilgan bo'lib, ular tomonidan berilgan tavsiya va tajribalar asosida korxonaga keltirilgan tolalar C - 8290 va And - 36 dan saralanma tayyorlandi (1-jadvalga qarang). Tipli saralanma uchun ja'mi 7108 dona kipda 1537,795 tonna 4-tip 1-nav toladan foydalanilgan.

Saralanmadagi tolalarning asosiy ko'rsatkichlari

	Mic	UHML,mm	Str., cN/teks	Elg., %	SF, %	Rd, %	+b	Tr. Cnt, dona
O'rtacha	4,69	28,46	29,7	7,7	6,6	76,4	8,1	46
Min	4,49	27,42	27,7	7,0	5,1	73	7,4	35
Max	5,01	29,61	30,8	8,4	8,7	78,7	9	78
Og'ish	0,52	2,19	3,1	1,4	3,60	5,70	1,60	43

Korxonada ip ishlab chiqarish uchun qayta tarash yigirish tizimi qo'llaniladi. Shunga ko'ra, qayta tarash o'timida chiqadigan chiqindilarning miqdori o'rganildi (2-jadvalga qarang). Bu tayyorlangan saralanmadagi tolalarning umumiy xossa ko'rsatkichlariga bog'liq.

Qayta tarash jarayonida chiqadigan chiqindi (asosan kalta tolalar) miqdori ipning sifatini ta'minlashda katta ahamiyatga ega bo'lish barobarida ip tannarxini belgilashda ham asosiy rol o'ynaydi. 2-jadvaldan ko'rinadiki, qayta tarashdan chiqadigan kalta tolalar miqdori talab etilgan me'yordan ancha kam shu sababli, saralanma to'g'ri tuzilgan deyish uchun dastlabki asos bor.

Saralanmadan qayta tarash jarayonida chiqadigan chiqindi miqdori

№	Chiqindi, %
O'rtacha	16,71
Max	16,96
Min	16,56

Yigirish korxonasida ip sifatini ta'minlashda eng asosiy jarayon bu tolalarni tarash jarayoni hisoblanadi. Korxonada eng zamonaviy tarash mashinasi o'rnatilgan.

Ushbu mashinalarda olingan pilta sifati ipning sifatiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi va shu sababli mashinaning texnologik imkoniyatlaridan samarali foydalanish orqali ip sifatini ta'minlash bo'yicha korxona ruxsati bilan bir dona tarash mashinasida tajribaviy tadqiqotlar olib borildi. Bunda korxonadagi tajribali texnologlarning tavsiyalari ham inobatga olindi.

Tajribalar davomida tarash mashinasi shlapka polotnosi, bosh baraban va qabul barabani tezliklarini rostdash va chiqayotgan tolali qatlam sifatini ta'minlash bo'yicha tadqiqotlar olib borildi. Tarash mashinasidan chiqayotgan piltadan yigirilgan ipning xossa ko'rsatkichlari korxonadagi laboratoriyadan foydalanib aniqlandi va jadvalga jamlandi (3-jadvalga qarang). Tajribalar natijalariga ko'ra eng yaxshi tajribalar: 2, 4 va 7-tajribalar bo'lib, nuqsonlar kam va ishlab chiqarish quvvati muvozanatlangan. Tadqiqot va tajribalar natijalariga qaraganda eng optimal tezliklar: shlyapka polotnosi tezligi 0.37 m/min^{-1} , bosh baraban tezligi: 820 m/min^{-1} qabul barabani tezligi 1300 m/min^{-1} ekanligi aniqlandi.

Tarash mashinasida asosiy harakat tezliklarini rostlash bo'yicha tadqiqot natijalari

Tajriba	Ko'rsatkichlar	Qiymat	U %	CVm %	Thin-50% /km	Thick 50% /km	Neps 200%/km	Total IP Stand. /km	Rkm
1	Shlyapka polotnosi tezligi, min ⁻¹ Bosh baraban tezligi, min ⁻¹ barabani tezligi, min ⁻¹ Qabul	0.34 800 1200	8,68	10,93	0	8	15	23	17,83
2	Shlyapka polotnosi tezligi, min ⁻¹ Bosh baraban tezligi, min ⁻¹ barabani tezligi, min ⁻¹ Qabul	0.34 800 1300	8,9	11,17	0	6	13	19	17,78
3	Shlyapka polotnosi tezligi, min ⁻¹ Bosh baraban tezligi, min ⁻¹ barabani tezligi, min ⁻¹ Qabul	0.34 820 1200	8,71	10,96	0	8	16	24	17,85
4	Shlyapka polotnosi tezligi, min ⁻¹ Bosh baraban tezligi, min ⁻¹ barabani tezligi, min ⁻¹ Qabul	0.34 820 1300	8,72	10,96	0	8	13	20	17,87
5	Shlyapka polotnosi tezligi, min ⁻¹ Bosh baraban tezligi, min ⁻¹ barabani tezligi, min ⁻¹ Qabul	0.34 820 1400	8,68	10,93	3	5	15	22	17,81
6	Shlyapka polotnosi tezligi, min ⁻¹ Bosh baraban tezligi, min ⁻¹ barabani tezligi, min ⁻¹ Qabul	0.36 820 1000	8,72	10,96	0	5	16	21	17,9
7	Shlyapka polotnosi tezligi, min ⁻¹ Bosh baraban tezligi, min ⁻¹ barabani tezligi, min ⁻¹ Qabul	0.36 820 1300	8,75	11	0	5	13	17	18,01
8	Shlyapka polotnosi tezligi, min ⁻¹ Bosh baraban tezligi, min ⁻¹ barabani tezligi, min ⁻¹ Qabul	0.37 820 1300	8,67	10,9	0	3	13	16	17,94
9	Shlyapka polotnosi tezligi, min ⁻¹ Bosh baraban tezligi, min ⁻¹ barabani tezligi, min ⁻¹ Qabul	0.38 820 1300	8,71	11,07	1	4	13	19	17,73

Tayorlangan saralanma uchun ishlab chiqarish texnologik jarayonlarning eng maqbul qiymatlarini o'rnatib olgach, halqali yigirish mashinasi halqali planka ko'targichning konstruksiyasiga o'zgartirish kiritish orqali ballonni kichraytirish va yuqoridagi xossallarga ega bo'lgan iplar ishlab chiqarish bo'yicha tajribalar olib borildi.

Nazariy tadqiqotlar amalda o'z tasdig'ini topganligi bo'yicha tahlillar o'tkazilgan va ushbularni inobatga olgan holda mashina imkoniyatlaridan samarali foydalanish va mashina unumdorligini oshirish bo'yicha tadqiqotimizni davom ettirildi.

Tadqiqotlarimizda bugungi kunda Respublikamizda eng ko'p ishlatiladigan va ishlab chiqarilayotgan trikotaj ip 20 teksli ekanligini inobatga olgan holda ushbu assortimentlar bo'yicha tajribalar olishni rejalashtirildi.

Takomillashtirilgan pishitish-o'rash qurilmani qo'llab ishlab chiqarilgan chiziqliy zichligi 20 teks bo'lgan trikotaj iplarning xossa ko'rsatkichlari

№	Ko'rsatkichlar	Nazorat	Tajribaviy
1	Ipning amaliy chiziqli zichligi, teks	20	20
2	Ipdagi buramlar soni, bur/metr	750	750
3	Uster bo'yicha notekisligi, %	8,67	7,92
4	Ipning pishiqligi, Rkm	17,94	18,01
5	Uzilishdagi uzayishi, %	6,1	6,8
6	Ingichka joylar soni, dona	3	0
7	Yo'g'on joylar soni, dona	5	3
8	Nepslar soni, Neps/km	16	13
9	Ipning tukdorligi, H, %	4,9	4,2
10	Mashinada ip uzilish soni, /1000 urch*soat	17	4

Tajriba natijalaridan kelib chiqib, nazorat va tajribaviy variantlar o'rtasida ip sifat ko'rsatkichlari taqqoslanganda sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatiladi. Ikkala variantda ham ipning amaliy chiziqli zichligi (20 teks) va buramlar soni (750 bur/metr) bir xil bo'lib, tajriba natijalariga aynan texnologik omillar ta'sir ko'rsatganini bildiradi (4-jadvalga qarang).


Tajribaviy variantda Uster bo'yicha notekislik 8,67% dan 7,92% gacha kamayib, ipning yanada tekis va bir xil tuzilishga ega bo'lganini ko'rsatadi.

Ipning pishiqligi 17,94 Rkm dan 18,01 Rkm gacha, uzilishdagi uzayishi esa 6,1% dan 6,8% gacha oshgan bo'lib, bu ipning mustahkamligi va elastikligi yaxshilanganidan dalolat beradi. Nuqsonlar tahlilida ham ijobiy natijalar qayd etilgan: ingichka joylar 3 tadan 0 taga kamaygan, yo'g'on joylar 5 tadan 3 taga, nepslar esa 16 tadan 13 taga tushgan. Bundan tashqari, ipning tukdorligi 4,9% dan 4,2% gacha kamayib, silliqroq ip hosil bo'lganini anglatadi.

Eng muhim natijalardan biri mashinada ip uzilishlar sonining 17 martadan 4 martagacha keskin kamayganidir. Bu ishlab chiqarish jarayonining barqarorligini oshiradi va umumiy samaradorlikni yaxshilaydi.

Umuman olganda, tajribaviy usul ipning fizik-mexanik xususiyatlarini yaxshilab, nuqsonlar miqdorini kamaytirgan hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirgan. Shu sababli ushbu usulni amaliyotga joriy yetish mahsulot sifatini oshirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.


